

USTRUSHONA – CHOCH, FARG‘ONA VA SUG‘D O‘RTASIDAGI MADANIY ALOQALAR TIZIMIDA

Asatullayev Eldor Ne‘matulla o‘g‘li

Sayxunobod tumani 36-maktab tarix fani o‘qituvchisi

Tel.: +998 91 100 39 79

Annotatsiya. Maqolada antik davr va ilk o‘rta asrlarda Ustrushonaning Markaziy Osiyodagi tarixiy-madaniy jarayonlarda tutgan o‘rni, xususan, uning Choch, Farg‘ona va Sug‘d bilan madaniy, savdo-iqtisodiy hamda etnomadaniy aloqalari tahlil qilinadi. Ustrushonaning geografik joylashuvi mintaqaning yirik vohalarini o‘zaro bog‘lovchi tabiiy tranzit hudud sifatida shakllanishiga imkon bergani ko‘rsatib beriladi. Yozma manbalar, arxeologik topilmalar va numizmatik materiallar asosida qo‘shni vohalar o‘rtasida hunarmandchilik an‘analari, savdo mahsulotlari, boshqaruv madaniyati va badiiy tasavvurlarning tarqalish jarayonlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ustrushona, Choch, Farg‘ona, Sug‘d, Buyuk Ipak yo‘li, Eski Xovos, madaniy aloqalar, savdo, hunarmandchilik, turk-sug‘d munosabatlari.

Аннотация. В статье анализируется место Уструшаны в историко-культурных процессах Центральной Азии в античности и раннем Средневековье, в частности её культурные, торгово-экономические и этнокультурные связи с Чачем, Ферганой и Согдом. Показано, что географическое положение Уструшаны способствовало превращению области в своеобразную транзитную территорию, связывавшую крупнейшие историко-культурные регионы Средней Азии. Рассматриваются данные письменных источников, археологических находок и нумизматических материалов.

Ключевые слова: Уструшана, Чач, Фергана, Согд, Великий шелковый путь, Старый Хавас, культурные связи, торговля, ремесло, тюрко-согдийские отношения.

Abstract. The article examines the role of Ustrushana in the historical and cultural processes of Central Asia during Antiquity and the Early Middle Ages, with particular attention to its cultural, commercial, economic, and ethno-cultural relations with Chach, Fergana, and Sogd. The geographical position of Ustrushana is considered an important factor that transformed the region into a transit zone connecting major historical and cultural areas of Central Asia. Written sources, archaeological finds, and numismatic materials are used to examine these interregional contacts.

Keywords: Ustrushana, Chach, Fergana, Sogd, Great Silk Road, Old Khavos, cultural relations, trade, crafts, Turkic-Sogdian relations.

Markaziy Osiyoning qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixini alohida siyosiy birliklar doirasidagina o'rganish mintaqada sodir bo'lgan tarixiy jarayonlarning mohiyatini to'liq ochib berish imkonini bermaydi. Choch, Farg'ona, Sug'd, Ustrushona va Toxariston singari tarixiy-madaniy o'lkalar muayyan siyosiy chegaralarga ega bo'lgan bo'lsa-da, ular o'rtasida doimiy iqtisodiy, etnik va madaniy munosabatlar mavjud edi. Bu jihatdan Ustrushona alohida ahamiyatga ega. Uning geografik joylashuvi vohani shimolda Choch, shimoli-sharqda Farg'ona, g'arb va janubi-g'arbda Sug'd bilan bevosita bog'lagan. Natijada Ustrushona nafaqat mustaqil tarixiy-madaniy o'lka, balki Markaziy Osiyoning turli vohalarini bir-biriga bog'lovchi muhim kommunikatsiya hududiga aylangan [1].

Ustrushonaning asosiy hududlari bugungi Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hamda Tojikistonning shimoli-g'arbiy qismlariga to'g'ri kelgan. Bunjikat, Zomin, Dizak, Xovos, Mink va boshqa markazlarning mavjudligi vohaning murakkab ichki iqtisodiy va siyosiy tuzilishga ega bo'lganini ko'rsatadi. Ayniqsa, tekislik va tog'oldi hududlari orqali o'tgan qadimgi yo'llar Ustrushonani qo'shni vohalar bilan muntazam aloqada ushlab turgan. Ustrushonaning shimoliy hududlari Choch bilan bevosita tutash bo'lib, bu yaqinlik ikki voha o'rtasidagi aloqalarning shakllanishida muhim geografik omil bo'lgan. Choch Sirdaryoning o'rta oqimi, Chirchiq va Ohangaron vodiylarini o'z ichiga olgan yirik tarixiy-madaniy o'lka sifatida qadimdan o'troq dehqonchilik madaniyati bilan dasht chorvadorlari dunyosini bog'lab turgan. Ustrushonaning Xovos va Mirzacho'l orqali Choch bilan tutashishi esa ushbu aloqalarni yanada faollashtirgan [2].

Choch va Ustrushona o'rtasidagi munosabatlarni faqat savdo bilan cheklash mumkin emas. Ilk o'rta asrlarda Chochda turkiy sulolalarning siyosiy mavqei kuchaygan bir vaqtda Ustrushonada ham turkiy siyosiy va etnomadaniy unsurlar faol bo'lgan. Sug'diy yozuv va mahalliy tanga zarbi an'alarining turkiy siyosiy institutlar bilan yonma-yon mavjudligi mintaqada o'ziga xos madaniy sintez yuzaga kelganidan dalolat beradi. Sug'd va Ustrushonadan shimol hamda shimoli-sharq tomon harakatlangan karvonlarning bir qismi Choch orqali Yettisuv va Sharqiy Turkiston tomon yo'nalgan.

Ustrushonaning sharqiy va shimoli-sharqiy hududlari Farg'ona vodiysi bilan uzviy bog'langan. Qadimgi va ilk o'rta asr manbalarida Farg'ona yirik siyosiy hamda iqtisodiy markaz sifatida qayd etiladi. Uning aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik, metallga ishlov berish va savdo bilan shug'ullangan. Farg'onaning Sharqiy Turkiston va Xitoyga olib boruvchi yo'llarga yaqinligi Ustrushona uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ikki hudud o'rtasidagi madaniy munosabatlarning muhim arxeologik dalillaridan biri Eski Xovos yodgorligidan topilgan sopol buyumlardir. Tadqiqotlar davomida bu yerdan Farg'ona vodiysining Eylaton madaniyatiga xos idishlarga yaqin namunalar aniqlangan [3]. Ularning shakli va tayyorlash an'alaridagi o'xshashlik aloqalar faqat

tayyor mahsulotlarning savdosi bilan cheklanmaganini, hunarmandchilik tajribasi ham bir hududdan boshqasiga o'tgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Farg'ona, Choch, Sug'd va Ustrushonadagi siyosiy boshqaruv tizimlarida turkiy unsurlarning kuchayishi ularning siyosiy-madaniy jihatdan ham yaqinlashishiga olib kelgan [4].

Ustrushonaning tarixiy-madaniy taraqqiyotida Sug'd bilan aloqalar alohida o'rin tutadi. Sug'diylar qadimgi davrlardan oq Markaziy Osiyoning eng faol savdogar xalqlaridan biri sifatida xalqaro savdo munosabatlarida qatnashgan. Ularning savdo koloniyalari Samarqanddan Choch, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Xitoyning Gansu viloyatigacha yoyilgan edi. Savdo bilan birga sug'd tili, yozuvi, hunarmandchilik tajribasi va diniy-madaniy qarashlari ham keng hududlarga tarqalgan [5].

Ustrushona Sug'dning shimoli-sharqiy yo'nalishdagi iqtisodiy aloqalarida tabiiy ko'priq vazifasini bajargan. Samarqand va Buxorodan sharq hamda shimoli-sharqqa yo'l olgan karvonlar Ustrushona hududidan o'tgan. Sug'd savdogarlari ipak va paxta matolari, shisha, qog'oz, egar-jabduq, qimmatbaho metallar, dorivor mahsulotlar va boshqa tovarlarni uzoq masofalarga olib borganlar. Ustrushona esa ushbu almashinuv tizimining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan.

Sug'd ta'siri yozuv va til sohasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ustrushonadan topilgan epigrafik materiallar, jumladan, Chilhujra yodgorligidagi sug'diy bitiklar bu hududda sug'd yozuv madaniyati tarqalganini tasdiqlaydi [6]. Ustrushona tangalarida sug'diy yozuvlarning mavjudligi ham yozuv va siyosiy madaniyatning o'zaro ta'sirini ko'rsatuvchi muhim dalildir. Shu bilan bir vaqtda hududda turkiy siyosiy an'analar ham faol bo'lib, natijada Ustrushona turk va sug'd madaniyatlari bir-birini to'ldirgan hududlardan biriga aylangan. Bu jarayon turk-sug'd madaniy simbiozi tushunchasi orqali izohlanadi [7].

Ustrushonaning Bunjikat saroyi rangtasvirlari ham mintaqaning keng madaniy aloqalaridan dalolat beradi. Saroy devoriy tasvirlaridagi ov, jang, saroy hayoti va mifologik obrazlarda mahalliy an'analar bilan bir qatorda turkiy, sug'diy va hind madaniy muhitiga xos elementlarning uchrashi savdo karvonlari bilan nafaqat moddiy mahsulotlar, balki badiiy g'oyalar, syujetlar va obrazlar ham tarqalganini ko'rsatadi.

Ustrushonaning Choch, Farg'ona va Sug'd bilan madaniy aloqalarini tahlil qilish mazkur tarixiy o'lkani Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining chekka hududi sifatida emas, balki mintaqalararo munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. Uning geografik joylashuvi Zarafshon vodiysi, Sirdaryo bo'ylari, Farg'ona vodiysi va undan Sharqiy Turkistonga olib boradigan tarixiy yo'nalishlarni bir-biri bilan bog'lash imkonini yaratgan. Arxeologik topilmalar, numizmatik materiallar va yozma manbalar Ustrushonada turli madaniy an'analar bir-birini boyitganini ko'rsatadi. Eski Xovosdagi Farg'ona madaniyatiga yaqin sopol buyumlar, sug'diy yozuv va savdo an'analarining tarqalishi, Choch bilan shakllangan iqtisodiy-etnomadaniy munosabatlar

hamda turkiy boshqaruv elementlarining mavjudligi buning dalilidir. Buyuk Ipak yo'li esa bu aloqalarning rivojlanishida asosiy kommunikatsion omil bo'lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Negmatov N.N. Ustrushana, Ferghana, Chach and Ilak // History of Civilizations of Central Asia. Vol. III. – Paris, 1996. – P. 259–280.
2. Буряков Ю.Ф. Историческая топография Ташкентского оазиса. – Ташкент, 1975.
3. Грицина А.А., Содиқов М. Эски Ховос ва унга қўшни ҳудудлар қадим ва ўрта асрларда. – Самарқанд, 2010. – Б. 51.
4. Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлиги Ашина сулоласининг Фарғонадаги тармоғи тарихига доир // O'zbekiston tarixi. – 2019. – № 3. – Б. 3–19.
5. Vaissière E. de la. Sogdian Traders: A History. – Leiden–Boston: Brill, 2005.
6. Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – Санкт-Петербург: Филологический факультет СПбГУ, 2008.
7. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Тошкент: ART-FLEX, 2010.
8. Grenet F., de la Vaissière E. The Last Days of Panjikent // Silk Road Art and Archaeology. – Vol. 8. – Kamakura, 2002. – P. 155–196.